



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Mamatova Ayida Orifovna

Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on tumani 40-maktab  
o‘qituvchisi

*ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA  
GEOGRAFIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada geografiya darslarida pedagogik texnologiyalarini qo‘llash, ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish masalalari haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar.** Dars, ishlanma, klaster, swot, tushunchalar tahlil, xarita, Sirdaryo, Yangiye.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается использование педагогических технологий на уроках географии, повышающих эффективность учебного процесса.

**Ключевые слова.** Курс, разработка, кластер, swot, концептуальный анализ, карта, Сырдарья, Янгиер.

**Abstract** This article discusses the use of pedagogical technologies in geography lessons that increase the effectiveness of the educational process.

**Keywords.** Course, development, cluster, swot, conceptual analysis, map, Syrdarya, Yangier.

**Kirish.** Davlatimiz tomonidan qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuniш, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha



rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5712-son Farmoni, 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni, “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son Qarori, 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-sonli Qarorida tizimda eng zamonaviy, ilg‘or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tadbiqu etish masalalariga alohida e’tibor berildi. Mazkur huquqiy-me’yoriy hujjatlarda O‘zbekistonda uzlusiz ta’lim tizimini rivojlantirish, mavjud muammolarni hal etish borasida bir qator o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu qarorlardan belgilangan vazifalarni amalga oshirish ta’lim oluvchilarning fanga oid konpetenfiyalarini rivojlantirishda darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida loyihalashtirish lozim.

### **Asosiy qism.**

#### **I. Dars muqaddas:**

**II. Darsning ta’limiy maqsadi:** O‘quvchilarga Sirdaryo viloyati haqida to‘liq ma`lumot berish. to‘g‘risida tushuncha berish.

**III. Darsning tarbiyaviy maqsadi:** O‘quvchilarga mustaqil fikr yuritishni, olgan bilimlarini hayot bilan bog‘lay olishni, ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, estetik did axloqiy sifatlarini kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishlarini tashkil toptirish. Tabiatga mehr muhabbat uyg‘oyish asosida ekologik tushunchalarni kengaytirish.

**IV. Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** Mustaqil ishslash va fikrlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlashga o‘rgatish, fanga qiziqishini ortirish.

**V. Dars tipi:** Bilim, malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish, yangi bilimlarni berish darsi.

**VI. Darsning jihozları:** O‘zbekiston ijtimoiy, iqtisodiy va tabiiy xaritasi, mavzuga oid slaydlar va ko‘rgazmalar.

#### **VII. Darsning borishi:**

a) O‘quvchilar davomatini tekshirish.

b) O‘tilgan mavuni quyidagi savollar orqali so‘rash “Ha” yoki “Yuq” metodi orqali takrorlash

1. Rayon hududi Toshkent va Zarafshon iqtisodiy rayonlari bilan chegaradoshmi Ha

2. Rayonni, asosan Sirdaryo va Sangzor daryolari suv bilan ta’minlaydimi Ha

3. Rayonda qurilishbop shag‘al, qum,gips va ohak umuman yuqmi. Yuq

4. Rayon aholisi reja asosida boshqa joydan ko‘chirilib keltirilganmi Ha



5. Aholining 55 % dan ortig'i shaharlarda istiqomat qiladimi Yuq
6. Mirzacho'lning o'zlashtirilishi, asosan XXI asrning 50-60 yillariga to'g'ri keladimi Yuq
7. Mirzacho'l IR mamlakatda yetishtiriladigan paxta yalpi hosilining  $\frac{1}{4}$  qismini beradimi Ha
8. Rayon maydoniga 45 % ga donli ekinlar ekiladimi. Ha
9. Chorvachilikda qorako'l qo'ylarining salmog'i kattami. Ha
10. Donli ekinlar yetishtiriladigan joylarda chorvachilik rivojlanganmi Yuq
11. Sirdaryo IESning elektr quvvati iqtisodiy rayondan tashqariga ham chiqarilmoxdami Ha
12. Avtomobil yo'llarining yalpi uzunligi 12 mln km dan oshadimi. Yuq

### VIII. Yangi mavzu: “Sindikat” (1 ilova) “Klaster” (2 ilova)Qisqacha mazmuni:

Sirdaryo viloyati Mirzacho'lning o'zlashtirilgan qismlarini hamda qisman Qizilqum yerlarini o'z ichiga oladi. Viloyatda o'zlashtirishga yaroqli yerlar ko'p. Ammo tabiatiga xos ayrim noqulayliklar tufayli dehqonchilikda ko'pgina mehnat, mablag' sarflashga to'g'ri keladi. Tabiatning noqulayliklarini bartaraf etmoq uchun ihota daraxtzorlari barpo etish, yerosti suvlarini zovurlar qazib qochirish va tuproqni yuvib turish talab etiladi.

So'nggi o'n yilliklar mobaynida ekinzorlar maydoni 300 ming gettardan oshib ketdi. Shimoliy va Janubiy Mirzacho'l kanallari va yuzlab suv shoxobchalari qurildi. Sirdaryo viloyatida qadimgi kanallarning izlari, sardobalar bor. XV asrda Shohruh Mirzo va Mirzo Ulug'bek Sirdaryodan Mirzacho'lga kanal orqali suv keltirgan. O'zlashtirilgan yerlarda asosan dehqon-fermer xo'jaliklari tashkil qilindi.

**Aholisi.** Sirdaryo viloyatida mamlakat aholisining 2,5 foizi yashaydi. Aholining 90% dan ziyodi sug'oriladigan hududlarda joylashgan. Yangi yerkarni o'zlashtirish maqsadida boshqa viloyatlardan ishchi kuchlari jalb etilgan. Endilikda viloyat o'z ishchi kuchlari bilan ma'lum darajada ta'minlangan.

**Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari:** paxtachilik, donchilik, polizchilik, go'sht-sut chorvachiligi. **Sanoatning asosiy tarmoqlari:** elektroenergetika, yengil (paxta tozalash), oziq-ovqat, un-yorma.

**Xo'jaligi.** Sirdaryo viloyati xo'jalik negizini qishloq xo'jaligi tashkil qiladi. Ekin maydonlarining kattaligi jihatidan viloyat respublikada oldingi o'rinda turadi. Ekin maydonlarining deyarli yarmiga paxta ekinlari. Undan keyingi o'rinnlarda don (42%), ozuqa (5%) va sabzavot-poliz ekinlari (4,4%) turadi. Guliston va Xovos tumanlarida sabzavot va poliz ekinlari yetishtiriladi. Bog'dorchilik va tokchilik ham

rivojlangan. Polizchilikda viloyatlar ichida oldingi o'rinda.

Viloyatda *sanoat* zalvori bo'yicha qishloq xo'jaligidan keyin turadi. Bugungi kunda 80 dan ortiq sanoat korxonasi mavjud. Viloyat sanoatining asosini elektr energiya ishlab chiqarish tashkil etadi. Shirin shahridagi Sirdaryo GRES, Guliston shahridagi yog'-ekstraksiya zavodi, Yangiyer shahridagi qurilish materiallari va konstruksiyalari kombinati va viloyat paxta tozalash zavodlari yirik sanoat korxonalarini sanaladi. Viloyatda o'nlab qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

**Shaharlari.** Viloyatda 5 ta shahar bor. **Guliston** - viloyatning ma'muriy markazi. Shahar temiryo'l va magistral avtomobil yo'li ustida joylashgan. U shahar maqomini olganiga yarim asrdan oshdi. Shaharda paxta tozalash, yog'ekstraksiya, non zavodlari va elevator ishlab turibdi. Shuningdek, ta'mirlash- mexanika va uysozlik zavodlari, hunarmandchilik kombinati, tikuvchilik fabrikasi va boshqalar bor. Shaharda universitet, bir necha o'rta maxsus o'quv yurtlari va boshqa madaniy-maishiy muassasalar bor.

**Yangiyer** (37 ming kishi) 1957-yilda bunyod bo'lgan. Shaharda sopol quvurlar hamda yuqori bosimga chidamli quvurlar ishlab chiqaradigan zavod, temir-beton buyumlari kombinati bor. Kombinat elektr machtalari, beton tarnov (lotok)lar va unga mo'ljallangan taglik ishlab chiqaradi. Shaharning geografik o'rniga xos noqulayliklar uning rivojlanishiga salbiy ta'sir etmoqda.

## IX. Mustahkamlash.

### Amaliy mashg'ulot"

#### 3 ilova

1. Xaritadan Sirdaryo viloyatining tumanlari va shaharlarida sanoat tarmoqlarini to'g'ri rang asosida bo'yab ko'rsating .
2. Viloyat tumanlarini to'g'ri joylashtiring.



## X. Uyga vazifa: Uyda o'qib, xaritadan o'rganib kelish.



Xulosa qilib qilib aytganda har bir fan o‘qituvchisi oldida darslarni to‘g‘ri tizimli, zamonaviy tarzda tashkil etishda yuqori kasbiy kompetentlik talab etiladi. Muxtasar aytganda, davlatimiz rahbarining ta’lim va tarbiya sohasidagi tub islohotlarni yuksak bosqichga ko‘tarish, mamlakatimizning taqdiri va kelajagi uchun mas’uliyatini o‘z zimmasiga olishga qosir bo‘lgan yangi avlod kadrlarni voyaga yetkazishga qaratilgan ishlarni izchil davom ettirish nafaqat bizning vazifamiz, balki muqaddas burchimizdir.

### Adabiyotlar

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь // “Халқ сўзи” газетаси, 2020 йил 30 декабрь. - №276 (7778)-сон.

2.“Халқ таълими соҳасидаги илмий тадқиқот фаолиятини қўллаб-кувватлаш ҳамда узлуксиз касбий ривожлантириш тизимини жорий қилиш чора-тадбирлари тўғрисида” Ўзб.Республикаси Президентининг қарори // Конун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.01.20201 й., 07/21/4963/0064-сон.

3.«Ta’lim to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. - Т.: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. - 2020 yil 24 sentyabr. 03/20/637/1313-son.